



LOYIHALARGA INNOVATSIYALARNI JALB ETISH JARAYONLARI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası mudiri

Nafasova Jamila Turg'un qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail : jnafasova@gmail.com

ORCID:0009-0001-5117-6116

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15393071>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- May 2025 yil

Ma'qullandi: 10- May 2025 yil

Nashr qilindi: 13- May 2025 yil

KEY WORDS

innovatsiya, loyiha,
raqobatbardoshlik, strategiyalar,
texnologik hamkorlik,
moliyalashtirish, investetsiya,
texnologik infratuzilma,
menejment usullari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada loyihalarga innovatsiyalarni jalb etish jarayonlari har tomonlama tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni aniqlash, baholash va ularni samarali joriy etish bosqichlari yoritilib, innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish usullari ko'rib chiqiladi. Innovatsiyalarni amalga oshirish loyihalar samaradorligini oshirish va ularning bozor raqobatbardoshligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotda innovatsiyalarni joriy etishning asosiy bosqichlari, zaruriy texnologik infratuzilma, investitsiyalar va menejment usullari haqida so'z yuritiladi. Maqola innovatsion yondashuvlarni loyihalarga qanday muvaffaqiyatli integratsiya qilish mumkinligini, shuningdek, innovatsiyalarni loyihalarda joriy etishdagi asosiy muammolar va ularga yechimlarni ko'rib chiqadi. Shuningdek, innovatsion jarayonlarning moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarni jalb etish usullari, texnologik hamkorlik va raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni loyihalarga jalb etish nafaqat kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish, balki ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt kabi ilg'or yondashuvlar biznes jarayonlarini samarali boshqarish va yangi bozor imkoniyatlarini ochishga yordam bermoqda. Dunyoda innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Raqobatbardosh bo'lish va bozor talablariga moslashish uchun korxonalar va tashkilotlar doimiy ravishda yangi texnologiyalar, ilg'or metodlar va kreativ g'oyalarni o'z loyihalariga joriy etishlari lozim. Innovatsiyalarni jalb etish jarayoni esa faqat texnik yangiliklarni tatbiq etish bilan cheklanmay, balki menejment, marketing, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ham yangicha yondashuvlarni talab etadi. Respublikamiz miqyosida ham barqaror turli sohalarni barqaror rivojlantirish maqsadida innovatsiyalarni joriy etish, innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda ish yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu xususida so'ngi yillarda mamlakatimizda qator qaror va farmoyishlar ishlab chiqilib, amalga tadbiq etilayapti. So'nggi besh yillik islohotlar natijasida respublikada ta'lim sifati va qamrovini oshirish hamda rivojlantirish, kadrlar

tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakatning innovatsion salohiyatini shakllantirish va yanada takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqildi va tubdan yangilandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan O'zbekiston Respublikasini 2019 — 2021-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida", "Innovatsion faoliyat to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi.[1]

Innovatsiya loyihalarga jalb etish jarayonlari har tomonlama bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, innovatsiyalar korxona mahsuloti yoki xizmatlarining raqobatbardoshligini oshiradi, ularni bozor sharoitida ajralib turadigan darajaga olib chiqadi, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar tufayli xarajatlar qisqaradi va ishlab chiqarish jarayonlari tezlashadi. Bu esa o'z navbatida samaradorlikni oshiradi. Shuningdek innovatsion loyihalar sarmoyadorlar uchun jozibali bo'lib, yangi moliyaviy manbalarni jalb qilishga yordam beradi, Barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ravishda innovatsion yechimlar ekologik toza va iqtisodiy jihatdan samarali bo'ladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlarida sanoat korxonalari uchun innovatsiyaviy va texnologik taraqqiyotga erishish o'ta muhimdir, chunki faqats shu yo'l orqali sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish, zamonaviy texnologik bazani yaratish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, samaradorlik va mehnat unumdorligin oshirish, shuningdek, ularning xalqaro hamda mahalliy raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Shuning uchun O'zbekiston sanoat korxonalarini boshqarishning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, innovatsion faoliyatning muhim xususiyati bo'lgan kerakli sifat va miqdor darajasiga erishishdan iboratdir. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va kelgusi rivojlanishi uchun sharoit yaratish innovatsion faoliyatni jonlantirish orqali amalga oshiriladi. Aynan shuning uchun, sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini jonlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratish, iqtisodiyotda samarali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning muhim omillaridan biridir. Bundan tashqari sanoat korxonalarining innovatsion faolligi darajasini baholash va ushbu innovatsion faoliyat asosida uzoq muddatli strategik rivojlanish maqsadlariga erishish va istiqbolda ularning barqaror daromad olishini ta'minlashga qaratilgan zamon bilan hamnafas milliy innovatsiya tizimini shakllantirish dolzarb masalalar qatorida turadi.[2]

Loyihalarga innovatsiyalarni jalb etish jarayonlarini o'rganishning asosiy maqsadi, bu jarayonning samarali usullarini aniqlash va innovatsiyalarni loyihalarga qanday integratsiya qilish mumkinligini tushuntirishdir. Shu bilan birga, innovatsiyalarni jalb etishning ahamiyatini va bu jarayonning loyihalar boshqaruvida qanday muhim o'rin tutishini

ko'rsatishdir. Maqsad, yangi texnologiyalar, mahsulotlar yoki biznes jarayonlarini loyihalarga kiritish orqali kompaniyalar o'zlarining samaradorligini oshirishlari, raqobatbardoshligini mustahkamlashlari va bozorni kengaytirishlari mumkinligini ta'minlashdir. Maqola, innovatsiyalarni qanday aniqlash, baholash va muvaffaqiyatli amalga oshirishning metodlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni loyihalarda qanday integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar hamda bu jarayonda yuzaga keladigan to'siqlarni yengish usullari o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Innovatsiyaviy rivojlanish muammolari ham mahalliy, ham horijiy tadqiqotchilar tomonidan turli jabhalarda o'rganilgan. Xususan, Piter Druker, Mansfield, E va Li, Dj, Robert Eke Nilson, Maykl Eugene Porter, B.Szanto, BC Twiss, Jozef Aloiz SHumpeter, Sidney Grexem, Uayt Kristofer Fremmen, Ake Bengt, Lundval, Jang E va boshqa chet el mualliflarning asarlari, ilmiy izlanishlari ushbu mavzuga bag'ishlangan.

MDH mamlakatlarida A.I.Anchishkin, V.M.Anshin, V.N.Arhangelskiy, A.A.Dagaev, N.B.Ermasova, L.E.Mindeli, K.F.Puziyini, N.Z.Solodieva, A.I.Tatarkin, R.A.Fatxutdinov va boshqa ko'plab olimlarning faoliyati innovatsiya bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Ushbu sohada faoliyat yuritgan mamlakatimiz olimlari orasida esa M.A. Ikramov, S.S. Gulyamov, A.M Qodirov, A.F Rasulev, D.V. Trostyanskiy, M.P..Narzaqulov, M.A.Mahkamova kabikarni keltirishimiz mumkin. I.Ansoff, M.Meskon, F.Yansen, L.S.Valinurova, G.Ya, Goldstein, M.P.Golik, S.V.Indemenov va shu kabi olimlarning ishlari esa innovatsiyaviy faollik va innovatsiya faoliyatini baholash masalalariga bag'ishlangan.

Iqtisodchi olimlar tomonidan "innovatsiya" va "innovatsion jarayon" tushunchalariga o'ziga xos yondashuvlar bildirilgan. P.F. Druker tomonidan «Innovatsiya – bu tadbirkorlar tomonidan o'ziga xos vosita bo'lib, u asosida turli xil xizmat va biznesdagi imkoniyat sifatida foydalanishi mumkin» degan ta'rif berilgan bo'lsa, R.I.Gimush, F.M.Matmurodovlar esa "Innovatsiya – yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim deya ta'rif berishgan. Z.T.Gaibnazarova tomonidan "Innovatsiya – bu kasbiy faoliyatning tubdan tartibga solish, yangi natijalarini yaratish va uni tubdan yangi sifat darajasiga ko'tarish" degan ta'rif berilgan.

Ushbu ta'riflarning mazmunidan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, innovatsiya-bu yangi kashfiyotlar, yangi jarayonlar, xizmatlar va usullar bo'lib, u iqtisodiy yoki biznes faoliyatda yuqori darajadagi samara keltirish vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Tadqiqotning asosiy maqsadi loyihalarga innovatsiyalarni jalb etish jarayonlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini aniqlashdir. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Innovatsiyalarni loyihalarga qanday jalb qilish mumkinligini o'rganish;
- ✓ Innovatsion yondoshuvlarning loyihalarga qo'shgan hissasini tahlil qilish;
- ✓ Innovatsiyalarni joriy etishda duch kelinadigan to'siqlarni o'rganish;
- ✓ Innovatsion ekosistemani yaratishdagi omillarni aniqlash.

Ushbu mavzu yuzasidan tadqiqot olib borish jarayonida loyihalarga innovatsiyalarni jalb etish jarayonlarini o'rganish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini birgalikda qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi innovatsion yondoshuvlarning loyihalarga qo'shgan hissasini aniqlash va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishda duch kelinadigan to'siqlarni o'rganishdan iborat. Ushbu masalani hal etish, muammoni yoritish uchun bir

qancha metod va uslublardan foydalanish mumkin . Jumladan, avval adabiyot tahlili o'tkaziladi, ya'ni innovatsiyalar va ularni joriy qilishga oid mavjud ilmiy ishlar va amaliyotlar ko'rib chiqiladi. Bu usul orqali innovatsiyalarning turli shakllari va ular loyihalarda qanday qo'llanilishi mumkinligi to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotda so'rovnoma va intervyular yordamida keng miqyosda ma'lumotlar yig'iladi. Innovatsiyalarni loyihalarga integratsiya qilishda ishtirok etgan menejerlar, mutaxassislar va tajribali xodimlar bilan intervyular o'tkazilib, ularning fikrlari tahlil qilish orqali yanada amaliy ahamiyatga ega matijalarga erishishimiz mumkin . Bunda innovatsiyalarni amalga oshirishda qanday strategiyalarni qo'llash va qaysi omillar muvaffaqiyatga olib kelishi haqida ma'lumotlar to'plash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, case-study (holat tahlili) usulidan foydalanish mumkin. Bu usul yordamida innovatsiyalarni loyihalarga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan kompaniyalar va tashkilotlar tajribasi o'rganiladi. Loyihalarning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar va yondoshuvlar aniqlangani natijasida tavsiyalar ishlab chiqib, tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar asosida innovatsion yondoshuvlarni loyihalarga muvaffaqiyatli kiritish uchun samarali strategiyalar va metodlar taklif etilishi asosiy usullardan biri sifatida tadqiq etish mumkin hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Ma'lumki, innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so'zidan olingan bo'lib, “yangilanish” (yoki “o'zgarish”), “in” qo'shimchasi esa lotinchadan “yo'nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko'rinishida tarjima qilsak-“o'zgarishlar yo'nalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo'lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi. “Innovatsiya” tushunchasi o'zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan.

Adabiyotlarda «innovatsiya» atamasiga berilgan ko'plab ta'riflarni topish mumkin. Biroq, tadqiqotchilarning ushbu iqtisodiy toifaga alohida e'tibor ko'rsatishlariga qaramay, ilmiy g'oya haligacha «innovatsiyalar» tushunchasining ham nazariya, ham amaliyot talablariga javob beradigan, shuningdek, ularni amalga oshirishning muayyan subyekti – davlat, mintaq, tarmoq va korxona nuqtai nazaridan to'g'ri bo'ladigan universal ta'rifini ishlab chiqmagan.

«Innovatsiyalar» atamasini yangi iqtisodiy toifa sifatida fanga avstriyalik (keyinchalik amerikalik) olim Yozef Shumpeter XX asrning bitinchi o'n yilligida kiritgan. O'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» nomli asarida (191 ly.) Y. Shumpeter ilk bora rivojlanishda o'zgarishlarning yangi kombinatsiyalari masalalarini (ya'ni innovatsiya masalalarini) ko'rib chiqdi va innovatsion jarayonga to'liq tavsif berdi.

Y. Shumpeter rivojlanishdagi besh xil o'zgarishni ajratib ko'rsatdi:

- 1) yangi texnika, texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor ta'minotidan foydalanish;
- 2) yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot joriy qilish;

- 3) yangi xomashyodan foydalanish;
- 4) ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning moddiy-texnika ta'minotida o'zgarishlar;
- 5) yangi sotuv bozorlarining paydo bo'lishi.

U iqtisodiyotda novator-tadbirkor markaziy figuraga aylanishini isbotlab berdi. Y. Shumpeterga ko'ra, innovatsiya bu – iste'mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shakllarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o'zgarishlardir.[3]

Innovatsiyalarni amaliy jarayonlarga tadbiq etishning asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Innovatsion faoliyat bilan qanchalik keng shug'ullanish, mamlakat yoki biror sanoat tuzilmasi miqiyosida bu faoliyatga keng yo'l ochib berish sohani rivojlantirish uchun asosiy qadamlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat – yakunlangan ilmiy tadqiqot va loyihalar natijalari yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlarni (fan-texnika yutuqlarini) yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga, bozorda sotiladigan, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, shu bilan bog'liq qo'shimcha ilmiy tadqiqot va loyihalarga joriy qilishga yo'naltirilgan jarayondir [3].

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda innovatsion siyosatning o'tkazilishi, eng avvalo, muayyan tarmoqlarda innovatsion salohiyatga ega bo'lgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Bunday siyosat, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning texnik jihozlanganligini yaxshilash, tarmoqlar, korxonalarining texnologik darajasini ko'tarish, umuman milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va boshqa shu kabilardan iborat bo'lgan qo'shimcha raqobat ustunliklari manbalarini aniqlashga qaratiladi. Ikkinchidan esa, raqobat ustunliklari ko'pincha bozorning yirik raqobatchilarda keltiradigan daromadining kamligi va o'zlashtirish vaqtida ko'lamlarining kichikligi tufayli qiziqish uyg'otmaydigan bo'g'inlarida yaratiladi. Uchinchidan raqobat ustunliklariga uzluksiz ravishda mablag'lar sarflashni talab etadigan yangi ishlanmalar muntazam mukammalashib borgan taqdirdagina saqlab qolinadi.

Shulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda davlatning investitsion-innovatsion o'zgarishlar siyosati ilmiy-texnologik tsiklning barcha bosqichlarini rivojlantirish va rag'batlantirishni hisobga olgan holda shakllantirilgan ekan.

AQSH, Yaponiya, Germaniya va Frantsiya tajribasining ko'rsatishicha, mamlakatning barqaror rivojlanishiga erishining muhim omillari investitsiyalar va innovatsion ishlanmalar hisoblanar ekan, mana shuning uchun ham bu mamlakatlarda investitsion jarayonni faollashtirish uchun sharoitlar yaratib berish vazifalari, xususan innovatsion strategiyasini yaratish, milliy iqtisodiyotning preferentsial tarmoqlariga selektiv yordam ko'rsatish, xususiylar va qarz investitsiyalarini jalb etish va joylashtirish hamda to'g'ridan-to'g'ri va portfel' investitsiyalar o'rtasidagi munosabat masalalari birinchi darajali bo'lib hisoblanadi.

Innovatsion siyosatning strategik maqsadi – ilmiy g'oy va ishlanmalarni raqobatbardosh tovar mahsulotiga aylantirish, ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishga joriy qilish, shuningdek, hududiy ilmiy-innovatsion salohiyatni saqlab qolish va rivojlanishni ta'minlovchi qulay innovatsion muhitni yaratishdan iborat. Milliy iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rivojlantirish butun bir innovatsiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash darajasi va sifatini oshirish, ekotizimga salbiy antropogen ta'sirlarni kamaytirish bilan bir vaqtda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion siyosatning muhim vazifalari quydagilardan iborat:

- ✓ asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarining tibbiy iste'mol me'yorlariga mos b'lishi;
- ✓ hududlararo almashish va eksport ahamiyatiga ega bo'lgan istiaboli mahsulotlarning ishlab chiqarilishi;
- ✓ qo'shilgan qiymatning ulushi va iqtisodiy samarasi yuqori bo'lgan mahsulotlarning ishlab chiqarilishi;
- ✓ mayda va yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bir-birini to'ldiruvchi maqbul nisbatda bo'lishi;
- ✓ ekotizimga antropogen ta'sirni kamaytirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligining oshirilishi. [4]

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda esa korxonalar, kichik sanoat birlashmalari tizimida innovatsion loyihalarni amalga tadbqiq etish, yuqori darajada samaradorlikni oshirishga qaratilgan loyihalardan foydalanish talab etiladi.

Innovatsiyalar korxonaning raqobat muhitidagi ustunligini shakllantirish va mustahkamlash, istiqbolli loyihalar asosida ularning tovar ishlab chiqarish va sotish sohalaridagi faolligini oshiradi. Demak, tashqi va ichki bozordagi raqobat kurashida innovatsiyalardam foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Innovatsiyalar o'rta va yuqori raqobatbardoshlik afzalliklarini shakllantiradi. Mutanosib ravishda korxona raqobatbardoshligini innovatsion rag'batlantirish deyilganda, mahsulotlar sifatini oshirish, xarajatlarni qisqartirish, iste'mol tovar mahsulotlari assortimentini ko'paytirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va korxonani boshqarish tizimida innovatsion raqobatbardoshlik afzalliklarini yaratish va amalga oshirish tushuniladi.

Rivojlangan mamlakatlarda YaIM o'sishining 80-95 foiziga yangi bilimlarni, texnologiyalarni, yangi uskunalarni takomillashtirish va kadrlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish chora- tadbirlarini amalga oshirish hisobidan erishilmoqda. Yangi texnologiyalarni tatbiq qilish ishlab chiqarish samaradorligi, tovar va xizmatlar sifatini oshirishda asosiy omil bo'lib qoldi. Iqtisodiyot real sektorining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi iqtisodiy rivojlanishni sustlashtiruvchi omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish, innovatsion ishlab chiqarishga mablag'larni sarflash, mamlakatni ishlab chiqarish omillari ta'minotchisi holatidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi mavqeiga olib chiqadi.[4]

Xulosa va takliflar (conclusions and recommendations)

So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng so'nggi texnologiyalar ishlab chiqarish va tadbirkorlik jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Eng yangi texnologiyalar inson faoliyatining barcha yangi sohaları va tarmoqlariga kirib borishi bilan an'anaviy yondashuvlar o'zgaradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo'lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta'sir ko'rsatdiki, yangi bir hodisa – raqamli iqtisodiyot paydo bo'ldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'sirida odamlarning turmush tarzi o'zgara boshladi, foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalar o'zgardi - turli geografik mintaqalar, faoliyat sohaları va boshqalardagi odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan axborot aloqalarining jadal o'sishi. Raqamli

texnologiyalarning ta'siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi. Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarishlarning kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o'sib borayotgan qismidir. Yangi texnologiyalar yaxshi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ba'zi jihatlariga o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu asosan ishlaydigan mexanizmlarni – aloqa vositalarini yoki sanoat mashinalarini raqamli yoki raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek, ularni yanada modernizatsiya qilishdan iborat. Raqamli iqtisodiyotning o'sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator bozorlarning o'sishi bilan bog'liq. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish kerak. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif qiladi va boshqaruv mexanizmlarini o'zgaruvchan voqelikni aks ettirish uchun o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi.[5]

Xulosa qilib aytish mumkinki, innovatsion faoliyat, qaysi tarmoqdalgidan qat'iy nazar, izlanish, qayta ishlash va takomillashtirilgan yangilik hamda texnika-texnologiyalarni o'z ichiga olgan jarayonlar majmuasi hisoblanadi. Demak, qo'shimcha daromad olish yoki o'sha hajmni saqlab qolish uchun texnika va texnologiyalarni innovatsiya ishlanmalari bilan takomillashtirib borish lozim.

Loyihalarga innovatsiyalarni jalb etish jarayoni – bu nafaqat texnologik yutuqlarni joriy etish, balki tizimli va strategik yondashuvlarni talab etadi. Innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun loyiha rahbarlari va jamoalari yangi g'oyalarni qabul qilish, amaliyotga tadbiq etish va uning samaralarini muntazam ravishda baholab borish zarur. Shuningdek, innovatsion jarayonlar faqat yangi texnologiyalarning qo'llanilishi emas, balki barcha loyihani boshqarish, resurslarni taqsimlash va muammolarga ijodiy yechimlar ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi. Loyihalarga innovatsiyalarni joriy etishdagi muvaffaqiyatlar kelajakda raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) VA BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI**, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/16, 33-37.
2. G Shamsiddinov, „iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Durdona Turayeva." **GLOBAL IQLIM O „ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHNING ZAMONAVIY, INNOVATSION USULLARI**." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 103-106.
3. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **KLIENT-SERVER ARXITEKTURALARI**, Наука и инновация, 2025/3/25, 113-119.
4. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **VIRTUAL BORLIQ VA UNING ASOSIY TUSHINCHALARI**, Наука и инновация, 2025/3/24, 52-58.
5. G'iyosjon Shamsiddinov, Barchin Ro'ziqulova, Laziza Inatillayeva, **BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI**, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/10/21, 39-41.
6. Л Турсунова, С Жураев, **ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024, 35-37.

7. DO Israilovich, TL Komilovna, Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering, European journal of innovation in nonformal education, 2022, 369-373.
8. Ro'Ziqulova Marjona Jonuzoq Qizi, Tursunova Luiza Komilovna, INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR, Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025, 63-66.
9. Луиза Комиловна Турсунова, Гиесжон Шамсиддинов, Образ педагога в информационном мире, "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" mavzusidagi xalqaro ilmiy Anjuman, 2024/2/23, 421-426.
10. Зебинисо Абдулхакимовна Абдувалиева, Турсунова Луиза Комиловна, Математический аппарат методов принятия решения документооборота в ВУЗах, 2022, 286-289.
11. Alijon Muhammadiyev, Shukurullo Aliqulov, PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION, Наука и технология в современном мире, 2024, 90-92.
12. Sh Aliqulov, M. Yaxiyaxonova. Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim ..., 2024.
13. ALIQULOV SHUKURULLO FAYZULLO, TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 45 | ISSUE – 2 January – 2024, 2024/1/2, 61-65.
14. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Iqtidorli talabalarni fan, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilishning zamonaviy usullari, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 54-57.
15. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Hozirgi globallashuv jarayonida intellektual yoshlarning ijtimoiy rivojlanish davridagi roli, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 40-43.
16. Mavlonov Sh Sh, FB Jurayeva, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, Экономика и социум, 2024, 234-238.
17. Feruza Jo'rayeva, Sarvinoz Xurramova, MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI TAHLILI, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/9, 8-12.
18. Feruza Jo'rayeva, TA'LIM JARAYONIDA AQL XARITALARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI, Молодые ученые, 2024/4/8, 159-166.
19. Feruza Jo'rayeva, Gulhayo Hamdamova, MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI AHAMIYATI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/3/31, 31-35.
20. Tuxtanazarova N. A Davletov A. J. , Mavlanberdiyev S. F., Norqulova Z. N., Jurayeva F. B., Jurayeva D. Sh, STUDY RATIO OF MOISTURE AND BIOME FOR EXTREME SITUATION, ВЫСШАЯ ШКОЛА• №23 / 2021, 2021/12/23, 34-36.
21. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "CHET ELDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMI." Молодые ученые 3.8 (2025): 160-165.

22. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI." *Наука и инновация* 3.8 (2025): 146-151.
23. Salimova, Marjona, and Nozima Nuriddinova. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING INNOVATION USULLARI." *Наука и инновация* 2.38 (2024): 161-164.
24. Nuriddinova, Sevinch, and Nozima Nuriddinova. "Increasing the effectiveness of learning biology lessons by means of interactive games and interactive methods." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.7 (2024): 288-290.

